

## **O‘ZBEKISTON TABIATINING XILMA-XILLIGI**

*Siddiqova Nodira Kamildjanovna*

*Dovutova Madinabonu Qosimjon qizi,*

*Rasulova Shahribonu Olimjon qizi,*

*Abdumannobova Mubinaxon Farxod qizi,*

*Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti*

**Annototsiya.** Maqolada berilgan ma’lumotlar, Respublikamizning tabiati qanchalik boy va xilma-xil, yurtimiz releflari, o‘simlik, hayvonlar tur jihatdan nayob turlari mavjud va ular muxofaza qilinishi kerak. Xar tur katta ahamiyatga ega, respublikada suniy tabiat xududlarini-o‘rmlarni barpo etish bo‘yicha yangidan yangi islohatlar, qarorlar qabul qilinmoqda.

**Kalit so‘zlar:**Turon tekislikar, Xisor tog‘i, Ustyurt yassi tog‘lari, o‘simliklar, xayvonlar, turlar, muhofaza qilish qo‘riqhonalar, buyurtmahonalar, milliy bog‘lar, Qizil kitob, ekologik muammolar, o‘rmon fondi, o‘rmon xo‘jaliklar.

O‘zbekiston bir-biridan keskin farq qiluvchi tabiiy xilma-hilligi qorli tog‘lari, sersuv daryolari, poyonsiz dashtlari bilan kishini maftun etuvchi jannatmakon diyordir. Uning asosiy hududini Turon tekislikari egallagan. O‘zbekiston dengiz sathidan hisoblaganda eng yuqori nuqtasi Xisor tog‘ tizmasidagi Xazrati sulton tog‘ cho‘qqisi, eng past nuqtasi- Markaziy Qizilqumdagi Mingbuloq botig‘idir. Mamlakat lanshaftini shartli ravishda 3 qismga bo‘lish mumkun: sharq va janubi-sharqdagi tog‘lar va tog‘oldi hududlari, g‘arbda cho‘llar va yarim cho‘llar, g‘arb va shimoli-g‘arbda yassi tog‘lar, ayniqsa, ushbu mintaqadagi toshli yaydoq Ustyurt yassi tog‘lari, Amudaryoning quyi oqimidagi tekisliklar va bazi joylarda yassi tog‘lari ko‘zga tashlanuvchi Qizilqum cho‘li alohida ajralib turadi. O‘zbekiston o‘simlik dunyosi boy va hilma-hil mamlakat hisoblanadi. Hududida o‘simliklari 4500 yaqin turi o‘sadi. Ularning 3000 dan ortig‘i

yuqori yovvoyi, shundan 270 dan ko'prog'i endemik o'simlik hisoblanadi. Biologik va landshaft hilma-hilligi o'zbekistonning eng asosiy milliy boyliklaridan biridir. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish ularni yo'q bo'lib ketish xavfi ostida qolganlarini saqlab qolish hamda ko'paytirishdek davrimiz uchun o'ta dolzarb muammolarni hal etishda O'zbekiston qo'riqxonalar, buyurtmahonalar, milliy bog'lar alohida o'rin tutadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda biologis hilma hillikni saqlab qolish borasida bir qancha jiddiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ularni yanada jadallashtirish kamyob va yo'q bo'lib ketayotgan hayvonlar muhofazasini kuchaytirishga, hamda sonini tiklashga xizmat qilishi kerak. Respublikada tashkil etilgan 6 tog' (Xisor, Zomin, Kitob, Nurota, Surxon, Chotkol) 3 ta cho'lto'qay ( Qizilqum, Baday-To'qay, Zarafshon) qo'riqxonalar, 2 ta milliy bog' (Zomin, Ugrom-Chotqol), 9 ta buyurtmaxona (Arnasoy, Dengizko'l, Qorakir, Qarnabcho'l, Qoshrabod, Muborak, Nurobod, Aktau, Sayg'oqli, Sudoche) va 2ta tabiiy yodgorliklardan ( Vardonze, Yozyovon) iborat ekologik tarmoq hayvonot va o'simlik olamining majmuaviy muhofazasiga va uning resurslaridan barqaror foydalanishga xizmat qilmoqda. Respublika qo'riqxonalarida Qizil kitobga kiritilgan Buhoro bug'isi, morxor, Qizilqum arxari, ko'k sug'ur, Turkiston silovsini kabi hayvonlar, yirik yirtqich qushlar va hashorotlar muhofaza ostiga olingan. Kamyob va yo'q bo'lib ketayotgan hayvonlarni yarim tutqunlik sharoitida ko'paytirish ularni saqlab qolish va sonini tiklash istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Yildan yilga nodavlat notijorat tashkilotlarni tarmoqlari kengayib bormoqda. Ular aholi orasida ekologik tafakkurni shakillantirish hamda yovvoyi tabiatni saqlab qolish masalalari borasida davlat muassasalari bilan hususan, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan faol hamkorlik qilmoqdalar. O'zbekistonda ekologik muammolarni yechimini toppish jarayonida jamoatchilikni keng ishtirokini taminlashga alohida etibor qaratilayotir. Mamlakatimiz barcha mintaqalarida ekologik yo'nalishlardagi jamoat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Ana shunday omillar tufayli respublikamizda atrof muhit muhofazasi, sog'lom muhit yaratish orqali mavjud muammolarni yechimini topishda ushbu hamkorlik doirasida jamoatchilik ekologik nazoratini olib borilishi alohida o'ringga ega. O'zbekiston Rspublikasi "Biologik hilma

hillik to'g'risida"gi Konvensiya (1995) qo'shib, halqaro jamiyat oldida o'zining milliy biologik resurslarini muhofaza qilish uchun javobgarligini e'lon qildi. Malakatdagi umurtqali hayvonlar hozirgi faunasi 105 hildagi sut emizuvchilar, 441 turdagi qushlar, 60 turdagi sudralib yuruvchilar, 3 turdagi suvda va quruqlikda yashaydigan jonivorlar va 76 turdagi baliqlar, umurtqasizlar faunasi esa 15 000 turdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga 324 turdagi noyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi o'simliklar va zamburug'lar, 184 turdagi hayvonlar kiritilgan va ular doimiy davlat muhofazasiga olingan. Bugungi ekologik vaziyatni nazorat qilishga salbiy yondashuv kelajakda iqtisodiy, siyosiy, ekologik jihatdan javobberishga to'g'ri to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda. Mustahkam ekologik barqarorlik va tabiat tizimining faoliyat ko'rsatishini qo'llab quvatlashda biologik resurslarning ahamiyati to'g'ri tushunishini har tomonlama rag'batlantirish lozim bo'lmoqda. Bio hilma-hillikni saqlash va zarar yetkamasdan foydalanish masalalari taraqqiyotini rejalashtirishda o'z aksini topmoqda. Har yili o'rmon fondi yerlarida o'rmon barpo qilish va qayta tiklash tadbirlari tasdiqlangan qaror va dasturlar doirasida aniq topshiriqlardan kelib chiqib rejalashtiriladi hamda amalga oshiriladi Joriy yilning bahor mavsumida o'rmon fondining tog' va tog'oldi hududlarida jami 6,7 gektar, shundan 5,0 ming gektar pista, 1,3 ming gektar bodom, 0,4 ming gektar yong'oq plantatsiyalari tashkil etildi. O'rmon xo'jaliklari tomonidan vodiya va to'qay hududlarida jami 1000 gektar, shundan 650 gektar terak, 200 gektar pavlovniya, 150 gektar qayrog'och, shumtol kabi daraxtlarning plantatsiyalari barpo etildi.

Cho'l hududlarida o'rmon barpo qilish to'g'risida gap ketganda, albatta Orol dengizining suvi qurigan tubidagi mavjud muammolar va ularning yechimi to'g'risida gapirishimiz lozim. Dunyo statistikasiga qaraydigan bo'lsak, atrof-muhit, jumladan suv-havo ifloslanishi, chang-to'zonlarni atmosferaga ko'tarilishi – urushlar, zo'ravonliklar, kasalliklar, ocharchilik yoki tabiiy ofatlardan ko'ra ko'proq odamlarning umriga zomin bo'ladi.

## **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR**

1. Kosimov, A. (2019). The study of heat resistance of Golden Currant (*Ribes aureum* Pursh) varieties. *International Journal of Research and Development*, 4(112), 30-32.
2. Mavlyanovich, A. R., Ravshanovna, A. K., & Abdukodirovich, K. A. (2020). Studying the drought-resistance of berry plants. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(6), 304-315.
3. Abdukodirovich, K. A. (2022). INFLUENCE OF FORMATION METHODS ON PLUM YIELD AND TRADITIONAL FRUIT CHARACTERISTICS. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 1(1), 47-54.
4. Abdukodirovich, K. A. (2021). THE EFFECT OF DIFFERENT METHODS OF PRODUCTION ON THE PRODUCTIVITY OF CHILD VARIETIES AND THE COMMERCIAL CHARACTERISTICS OF FRUITS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(11), 411-415.
5. Ravshanovna, A. K., & Abdukodirovich, K. A. (2021). PROMISING VARIETIES OF GOLDEN CURRANTCULTIVATED IN THE CONDITION OF UZBEKISTAN.